

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 239 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиев Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ	214
Шомуродов Равшан Турсункулович	
TEMIRBETON KO'RRIKLARDAGI BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	



MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI

Isakov.J.Ya

TDIU professori

E-mail: 6533583@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida foiz riskining nazariy mazmuni va uning bank faoliyati barqarorligiga ta'siri o'rganilgan. Mamlakatimiz banklarida foiz stavkalari dinamikasining o'zgaruvchanligi, aktiv va passivlar muddatlaridagi nomutanosiblik hamda kredit portfeli strukturasi foiz riskiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, foiz riskini baholashda qo'llaniladigan GAP-tahlil va duration usullarining amaliy jihatlari ko'rib chiqilib, riskni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, foiz riski, foiz stavkasi, kredit foizi stavkasi, depozit foizi stavkasi, bank marjasi.

Abstract. This article studies the theoretical content of interest rate risk in commercial banks and its impact on the stability of banking activities. The volatility of interest rate dynamics in banks of our country, the imbalance in the terms of assets and liabilities, and the impact of the structure of the loan portfolio on interest rate risk are analyzed. Also, the practical aspects of the GAP analysis and duration methods used in assessing interest rate risk are considered, and recommendations for reducing risk are developed.

Keywords: commercial banks, interest rate risk, interest rate, loan interest rate, deposit interest rate, bank margin.

Аннотация. В статье рассматривается теоретическое содержание процентного риска коммерческих банков и его влияние на устойчивость банковской деятельности. Анализируются волатильность динамики процентных ставок в банках нашей страны, несбалансированность активов и пассивов, а также влияние структуры кредитного портфеля на процентный риск. Также рассматриваются практические аспекты применения методов GAP-анализа и дюрации при оценке процентного риска, а также разрабатываются рекомендации по его снижению.

Ключевые слова: коммерческие банки, процентный риск, процентная ставка, процентная ставка по кредитам, процентная ставка по депозитам, банковская маржа.

KIRISH

Tijorat banklari boshqa ko'plab korxona va tashkilotlarga qaraganda foiz riskiga ko'proq duchor bo'ladigan tuzilmalar hisoblanib, bunga ular operatsion faoliyatining spetsifik jihatlarini asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, tijorat banklarining asosiy daromadi o'z bank xizmatlari, ya'ni depozit va kredit xizmatlari uchun qo'yiladigan foiz hisobidan shakllanib, ularning daromadlilik manbaini bank marjasi, ya'ni depozit bo'yicha foiz stavkalari va kredit bo'yicha foiz stavkalari o'rtasidagi farq ta'minlab beradi. Mamlakat Markaziy banki tomonidan o'rnatiladigan asosiy foiz stavkasi bo'lsa depozit va kredit bo'yicha foiz stavkalarining o'rnatilishi uchun asos hisoblanib, asosiy foiz stavkadagi tebranish yoki o'zgarishlar mos ravishda depozit va kredit bo'yicha foiz stavkalaridagi tebranish va o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bank marjasining baland yoki past bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, tijorat banklarining daromadlilik darajasini belgilab beradi.

AQSH dagi Federal depozitlarni sug'urtalash korporatsiyasi tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, foiz riski – bu bankning joriy yoki kelajakdagi daromadlari va kapitalining bozor stavkalaridagi salbiy o'zgarishlarga duchor bo'lish xavfidir [1].



Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko'rinib turganidek, foiz riski tijorat banklarining faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim bank riski bo'lib, u boshqa asosiy bank risklari, ya'ni kredit, likvidlik va boshqa shu kabi risklarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ushbu ilmiy maqolaning mavzusi dolzarb bo'lib, unda tijorat banklarida foiz riskining ilmiy, nazariy va amaliy asoslari ko'rib chiqilgan, bunda tahliliy ma'lumotlardan foydalanilgan holda foiz riski bilan bog'liq muammolar ko'rsatib berilgan hamda kerakli ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida foiz riski xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va ekspertlar tomonidan tadqiq etilayotgan muammolardan biri bo'lib, quyida bu boradagi yondashuv va qarashlarning qisqacha tahlilini keltirib o'tamiz.

Indoneziyalik olimlar Retno Belinda va Zulfa Irvatinining fikricha, foiz stavkasi jamg'armalarni to'plash va mablag'larni taqsimlashda hal qiluvchi rolg ega bo'lish orqali mamlakat iste'mol va investitsiya darajalarini oldindan bashorat qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, u iqtisodiy o'sish ko'lamlariga ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkasining o'zgarishlari risklar bilan tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi kuchli bog'liqlik tufayli bank sohasining barqaror va ijobiy ko'rsatkichlariga bog'liq bo'ladi. Indoneziyalik olimlarning xulosa qilishicha, aynan foiz riski tijorat bankining foiz stavkalaridagi o'zgarishlarga tezlik bilan moslashishi uchun juda zarur bo'lib, u bank sektoridagi xavfsizlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarining oshishiga muhim darajada turtki beradi [2].

AQSH lik ekspert Adam Kruegerning ta'kidlashicha, foiz riski – bu foiz stavkalaridagi o'zgarishlarning pul oqimlari yoxud aktivlar yoki majburiyatlarning qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimolidir. Foiz riski barcha buxgalteriya balanslari uchun xos bo'lib, an'anaviy bank amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan asosiy risklardan biri hisoblanadi (qolgan asosiy risklar bo'lib kredit va likvidlik risklari hisoblanadi). Ekspertning aytishicha, tijorat banklarining xavfsizligi va ishonchliligini baholash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruvlarning aksariyatida tekshiruvchilar tomonidan CAMELS reyting tizimining S komponenti hisoblangan "tijorat bankining bozor riskiga nisbatan sezgirligi" ni baholashda foiz riski hal qiluvchi omil hisoblanadi [3]. Shuningdek, Adam Krueger foiz riskini baholashning umumiy vositalari xususida fikr yuritgan bo'lib, 1–jadvalda ular to'g'risida ma'lumot berilgan.

Rossianing "Финансовый анализ" nomli rasmiy internet sayti ekspertlari tomonidan foiz riskiga quyidagicha ta'rif beriladi: foiz riski – bu bozordagi foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida zararlarining yuzaga kelish yoki foyda ko'rolmaslik ehtimolidir. U bozor konyunkturasidagi tebranishlar hamda davlat va Markaziy bank tomonidan foiz stavkalarining tartibga solinishi bilan bog'liq bo'ladi. Foiz riski talablar va majburiyatlarni bajarish muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik hamda talablar va majburiyatlar bo'yicha foiz stavkalarining notekis o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin [4]. Ushbu saytda foiz riskining salbiy oqibatlari ham keltirilgan bo'lib, ular 1– rasmda tasvirlangan.

Belaruslik olim Kuksa O.A va tadqiqotchi Chernak A.V ning aytishicha, Belarus respublikasi Milliy banki tomonidan bank risklarining asosiy turlari ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ular jumlasiga kredit riski, mamlakat riski, bozor riski (shu jumladan fond, valyuta va tovar risklari), bank portfelining foiz riski, likvidlik riski, operatsion risk (huquqiy risk va kiberrisk), strategik risk, reputatsiya riski va konsentratsiya riski kabilar kiradi. Ularning xulosaga ko'ra, tijorat banklari faoliyati ko'p jihatdan risklarga bog'liq bo'lib, bu banklar daromadlilikining pasayishiga sabab bo'ladi hamda bank risklarini aniq va samarali boshqarishga bo'lgan ehtiyojni asoslab beradi [5]. Belaruslik olim va tadqiqotchilarning qilgan xulosalaridan shuni anglash mumkinki, foiz riski eng muhim bank risklari qatoriga kirib, ana shuning o'zi ham tadqiqotimizning qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Mahalliy olim Malikov T. S. ning ta'riflashicha, foiz riski – bu korxonalarda ma'lum bir faoliyat turlari bo'yicha foiz ko'rsatkichlari yoki to'lovlarini oshib ketishligi va kamayib ketishligi ehtimolligi natijasida foyda hajmini belgilangan darajada ololmaslik ehtimolligidir [6].

Yana bir mahalliy olim Ziyodullayev S. M. ning ta'kidlashicha, tijorat banklari foydasining qisqa muddatli o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillar bo'lib portfel riski va operatsion risk hisoblanadi. Portfel risklari orasida tijorat banklarining foydasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan risklar bo'lib esa kredit riski, foiz riski, likvidlik riski, to'lovni muddatidan oldin – erta qoplash riski va valyuta riski kabilar namoyon bo'ladi. Uning qo'shicha qilishicha, respublikamizda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar uchun foiz riskining ahamiyat katta bo'lib, buning sababi shundaki, mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinadigan xalqaro kreditlarning mutlaq asosiy qismi (70 foizdan ortig'i) suzuvchi foiz stavkasi bo'yicha jalb qilinadigan kreditlarga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval. Foiz riskini baholashning umumiy vositalari [7]

Baholash vositasi	Nimani baholashi	Hisoblash
Gap tahlili	Belgilangan vaqt oralig'ida foiz stavkasiga nisbatan sezgir aktivlar (RSA) miqdori va foiz stavkasiga nisbatan sezgir majburiyatlar (RSL) darajasi o'zaro taqqoslanadi. Taqqoslash natijasida yuzaga kelgan farq foiz riskiga duchor bo'lgan aktivlar miqdorini ifodalaydi, salbiy qiymat bo'lsa majburiyatlarning foiz stavkalariga sezgirligini bildiradi. Gap tahlili ko'pincha tijorat banklari tomonidan vaqt o'tishi bilan risklarning qayta baholanishi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish uchun qo'llaniladi, ammo u barcha RSA va RSL larga teng munosabatda bo'ladi hamda u o'z – o'zidan boshqaruvchi organlarning kutilmalarini qondirmaydi.	$RSA - RSL = \text{Gap}$
Risk ta'siridagi daromadlar	Belgilangan vaqt oralig'ida, odatda ikki yilgacha bo'lgan davrda aktivlar va majburiyatlar narxining qayta baholanishiga qarab, foiz stavkasidagi potensial o'zgarishlarning sof foiz daromadi (NII) ga ta'sirini baholash uchun daromad turli xil ssenariylar bo'yicha modellashtiriladi. Pasaygan daromadlar yoki yo'qotishlar kapital va likvidlik pozitsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.	NII dagi o'zgarishlar / NII ning asosiy holati
Kapitalning iqtisodiy qiymati (EVE)	Turli xil ssenariylar bo'yicha foiz stavkalarini modellashtirish stavkalar o'zgarishlarining kelajakda kutilayotgan barcha pul oqimlarining diskontlangan qiymati va tijorat bankining joriy moliyaviy holatida yaratilgan kapital qiymatiga bo'lgan ta'sirini baholaydi.	Aktivlarning iqtisodiy qiymatidagi o'zgarish – Majburiyatlarning iqtisodiy qiymati / EVE ning asosiy holatidagi o'zgarish

Olimning o'z fikrini asoslash uchun bergan fikriga ko'ra, koronavirus pandemiyasi davrida xalqaro kreditlarga bo'lgan talabning pasayishi natijasida ular bo'yicha foiz stavkalari ham juda past darajada bo'lgan. Biroq, koronavirus pandemiyasidan keyin jahon iqtisodiyotining tiklanishi shubhasiz, xalqaro kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining o'sishiga olib kelib, buning natijasida suzuvchi foiz stavkasi bo'yicha olingan xalqaro kreditlar bo'yicha to'lovlar sezilarli darajada o'sadi (1-rasm).



1-rasm. Foiz riskining salbiy oqibatlari [8]

Ziyodullayev S. M. ning xulosa qilishicha, xorijiy banklar, shu jumladan transmiy milliy banklar doimo xalqaro kreditlarni suzuvchi foiz stavkasi bilan taqdim etishdan manfaatdor hisoblanishadi. Buning sababi shundaki, xalqaro kreditlarni suzuvchi foiz stavkasi boʻyicha berishda kreditor bank tomonidan olinadigan spread (marja) ularning bozor qiymati oʻzgarishidan qatʼiy nazar oʻzgarmas boʻlib saqlanib qoladi [9].

Umuman olganda, xorijlik, MDH hamda mahalliy olim, tadqiqotchi va ekspertlar tijorat banklarida foiz riski mamlakat asosiy foiz stavkasidagi tebranish yoki oʻzgarishlar natijasida yuzaga keladigan bank riski ekanligini asoslab berishgan boʻlib, ularning xulosalarini umumlashtiradigan boʻlsak, tijorat banklari uchun foiz riski boshqa bank risklariga qaraganda eng muhim risk hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqola xalqaro IMRAD tuzilmasi talablariga rioya etilgan holda tayyorlangan boʻlib, unda asosan uchta tadqiqot usuli qoʻllanildi: ilmiy – nazariy tahlil usuli, nazariy-amaliy tahlil usuli va iqtisodiy – statistik tahlil usuli. Ilmiy – nazariy tahlil usuli asosan maqolaning “Mavzuga oid adabiyotlar tahlili” qismi uchun toʻplangan maʼlumotlarni tahlil qilishda ishlatilgan boʻlsa, iqtisodiy – statistik tahlil usuli maqolaning “Tahlil va natijalar” qismi uchun toʻplangan maʼlumotlarni tahlil qilishda ishlatildi. Nazariy-amaliy tahlil usuli boʻlsa maqolaning ushbu ikkala qismida ham ishlatildi.

Ilmiy maqola uchun maʼlumotlarni toʻplash jarayonida asosan Google, Google Scholar va Yandex qidiruv tizimlari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-saytida keltirilgan va chop etilgan hisobot va statistik byulletenlaridan foydalanildi. Ilmiy maqolani tayyorlashda axborot va maʼlumotlardan maksimal darajada foydalanish, mantiqiy ketma-ketlik va izchilikka rioya etish hamda plagiatga olib kelishi mumkin boʻlgan “copy-paste” usulidan foydalanmaslikka harakat qilingan boʻlib, bu tadqiqot oldiga qoʻyilgan asosiy maqsad – tijorat banklarida foiz riski muammosini oʻrganish va zarur ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz tijorat banklarida foiz riski muammosi haqida gapirmoqchi bo'lsak, birinchi navbatda bunday riskning yuzaga kelishi va mavjud bo'lishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlilini amalga oshirish muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda, ilmiy maqolamizning ushbu asosiy va amaliy qismida Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi hamda tijorat banklari kreditlari va depozitlarining o'rtacha yillik foiz stavkalaridagi tebranish yoki o'zgarishlarni tahliliy ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

E'tiboringizni 2-rasmga qaratmoqchimiz. Rasmdagi diagrammada foiz riski bilan juda bog'liq bo'lgan Markaziy bank asosiy foiz stavkasidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Rasmdan ko'rinib turganidek, 2022-yilning 18-martiga kelib foiz stavkasi 14 foizdan 17 foizga ko'tarilgan. Bunga tashqi iqtisodiy faoliyatda yuqori darajada noaniqlik va keskinlikning yuz berganligi sabab bo'lib, Markaziy bank devalvatsion va inflyatsion kutilmalarning o'sishiga yo'l qo'ymaslik, mablag'larni milliy valyutada jamg'arish faolligini saqlash hamda iqtisodiyotga tashqi risklarning ta'sirini yumshatish orqali mamlakatda makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida asosiy stavkani 17 foizgacha oshirishga qaror qilgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy foiz stavkasining 2021–2024-yillarda o'sish dinamikasi [10].

2-rasmdagi ma'lumotlardan ma'lumki, 2022-yilning 10-iyuniga kelib foiz stavkasi 16 foizga tushirilgan. Markaziy bankning bunday yo'l tutishiga tashqi iqtisodiy xatarlarning qisqa muddatli salbiy to'liqlarining ortda qolganligi, aprel-may oylarida ichki valyuta bozorining barqarorlashuvi, valyuta oqimlari va milliy valyutadagi muddatli depozitlar o'suvchi dinamikasining tiklanganligi asosiy sabab sifatida ko'rsatildi.

Asosiy stavkaning pasaytirilishi inflyatsion xatarlarni jilovlashga yo'naltirilgan "qat'iy" sharoitlarni saqlab qolgan holda tashqi xatarlar uchun qo'shilgan qo'shimcha yuklamani neytrallashtirishga qaratilgan bo'lib, bunday maqsadni boshqa barcha pasayishlarda ham kuzatish mumkin [11].

2022-yilning 22-iyuliga kelib Markaziy bankning asosiy stavkasi yana 15 foizgacha tushirilib, bunga may-iyul oylarida qisqa muddatli tashqi shoklar ta'sirini pasayishi hisobiga makroiqtisodiy holatning nisbatan barqarorlashishi hamda tartibga solinadigan narxlarni erkinlashtirish bo'yicha kutilmalarning ortda qolishi sabab bo'ldi. Shu bilan, 2023-yilning 17-martiga qadar 15 foizlik stavka saqlanib turib, 17-mart kuni 14 foizga tushirildi. Asosiy stavkaning 1 foiz bandga pasaytirilishiga iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasiga o'tganligi sabab bo'lib, haqiqatdan ham 2023-yilning yanvar-fevral oylarida yillik inflyatsiya ko'rsatkichi 12,2 foizgacha biroz pasaygan. Va nihoyat, 2024-yilning 26-iyul kuni kelib, asosiy stavka 13,5 foizgacha pasaytirilib, bunga ham 2023-yilning 17-mart kunidagi kabi iyun oyida yillik inflyatsiya darajasining 10,6 foizga pasayganligi asosiy sabab bo'ldi. Shu o'rinda, ta'kidlab o'tmoqchimizki, inflyatsiya darajasining bunday pasayishiga Markaziy bankning nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lib, bu ishlab chiqarishning ijobiy tafovutini qisqarib borishiga va talab tomondan inflyatsion bosimning pasayishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turganidek, asosiy foiz stavkasidagi o'zgarishlar birinchi navbatda, mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatidagi o'zgarishlar va inflyatsiya darajasini o'zgarishiga bog'liq bo'lib, aynan




ana shu bog'liqlik foiz riskining tijorat banklari uchun qanday tahdidlari borligidan dalolat beradi. Tabiiyki, bunday tahdidlarning tijorat banklari operatsion faoliyatiga ta'sirini kamaytirish uchun inflyatsiya darajasining pasayishi ham katta ahamiyatga ega bo'lib, bunda Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosati muhim rol o'ynaydi.

Endi e'tiboringizni 3-rasmga qaratmoqchimiz. Ushbu rasmda 2021—2024-yillar davomida (1-yanvar holatiga) tijorat banklarida milliy valyutadagi kreditlar va muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkasining o'sish dinamikasi keltirilgan. Bu ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan maqsadimiz shuki, birinchidan, ular asosiy foiz stavkasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan foiz stavkalari hisoblanadi, ikkinchidan, foiz riski asosan foiz stavkalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lganligi bois, tijorat banklari uchun bular ikkita eng muhim foiz stavkalari sanaladi.

Rasmga e'tibor qaratsangiz muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkalari kreditlarnikiga qaraganda ancha past miqdorni tashkil etadi. Buning sababi juda oddiy bo'lib, ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday tafovut tijorat banklari faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Tijorat banklari jismoniy va yuridik shaxslardan muddatli depozitlarni pastroq foiz stavkasida jalb qilishadi hamda ushbu depozitlarni yuqoriroq foiz stavkasida jismoniy va yuridik shaxslarga kredit qilib beradi. Tijorat banklari muddatli depozitlar va kreditlarning foiz stavkalari o'rtasidagi farqdan daromad topishadi.

3-rasmga e'tiborni qaratsangiz, kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi oxirgi yillar davomida muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shuni alohida aytib o'tishimiz joizki, "O'zbekiston-2030" strategiyasida bank sohasi uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlardan biri sifatida 2030-yilgacha kredit foizlarini 10-12 foizgacha pasaytirish ko'rsatilgan [12]. Agar ushbu muhim hujjat nuqtayi-nazaridan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, buni ijobiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. To'g'ri, bir tomondan bu tijorat banklarining o'zi uchun katta manfaat keltiradigan miqdor hisoblanadi. Biroq, uning yuqoriligi jismoniy va yuridik shaxslar uchun manfaat keltirmasligi aniq bo'lib, buning oqibatida so'nggi yillarda tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortish holati kuzatilmoqda (2022-yilda bu ko'rsatkich 14 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 16,6 foizni tashkil etdi) (3-rasm) [13].



3 – rasm. 2021 – 2024-yillarda milliy valyutadagi kreditlar va muddatli depozitlarning o'rtacha yillik foiz stavkasi (1-yanvar holatiga) [14].

Banklarning kredit bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkalarining yuqori miqdorni tashkil etishiga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- o Tijorat banklari o'rtasida raqobatning yuqori darajada emasligi va bank xizmatlari bozorida davlat tasarrufidagi tijorat banklarining katta ustunlikka ega ekanligi. Raqobat rivojlanmagan bunday muhitda kreditlar bo'yicha foiz stavkasi ham yuqori bo'ladi, chunki uni kamaytirishga ta'sir qiluvchi asosiy kuch – raqobat muhiti yetarli emas;

- o Tijorat banklari mamlakat kapital bozorida deyarli mutlaq ustunlikka ega bo'lishib, kredit masalasida ular bilan raqobatlashishi mumkin bo'lgan mikromoliyaviy kompaniyalarning kamligi va fond bozorining yetarli

darajada rivojlanmaganligi ham jismoniy ham yuridik shaxslarning asosan tijorat banklariga murojaat qilishiga sabab bo'lmoqda;

o Mamlakatda inflyatsiya darajasi va valyuta (ayirboshlash) kurslaridagi muntazam tebranishlar tijorat banklari uchun foiz riski tahdidini oshirib, ularni bu tahdiddan himoya qilish maqsadida ham Markaziy bank tomonidan shunday yuqori foiz stavka belgilanishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, foiz riski bank mijozlari tomonidan olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi (ya'ni kredit bo'yicha to'lovlarning belgilangan muddatlarda amalga oshirilmasligi) natijasida ham yuzaga kelishi mumkin bo'lib, bizning fikrimizcha, aynan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi ham mana shu yo'nalishda foiz riskining yuzaga kelishiga turtki bo'lmoqda. Chunki, foiz stavkalarining yuqoriligi natijasida qarz oluvchilarning kredit bo'yicha majburiyatlarini vaqtida bajara olmaslik holatlari ko'p kuzatilmoqda.

Shu o'rinda kreditlar bo'yicha foiz stavkasining asosiy foiz stavkasiga bog'liqligi xususida to'xtaladigan bo'lsak, asosiy foiz stavkasi kreditlar bo'yicha ham va muddatli depozitlar bo'yicha ham foiz stavkalari uchun chegaraviy stavka hisoblanadi. Masalan, 2024-yilning 1-yanvar holatida asosiy foiz stavkasi 14 foizni tashkil qilgan bo'lsa, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi 24,10 foizni va depozitlar bo'yicha foiz stavkasi 19,90 foizni tashkil qilgan. Boshqacha qilib aytganda, ikkala stavka bo'yicha ham asosiy foiz stavkasidan quyi miqdorni belgilab bo'lmaydi. Agar asosiy foiz stavkasi pasayib boraversa, bu kreditlar bo'yicha foiz stavkasining ham pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.

- Endi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkasi xususida to'xtaladigan bo'lsak, ularda ham xuddi kreditlar bo'yicha foiz stavkasi kabi muntazam o'sish kuzatilgan. Bu so'nggi yillarda tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb etishga qaratilgan faol siyosatning amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Chunki, depozitlar bo'yicha foiz stavkasining oshishi jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat banklariga pul mablag'larini qo'yishlarini rag'batlantiradi. Tijorat banklarining depozitlar bo'yicha foiz stavkalaridagi tebranishlar ham foiz riski xavfining oshishidan dalolat beradi. Depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining foiz riski bilan bog'liqlik darajasini quyidagicha tushuntirish mumkin:

-inflyatsiya darajasi, valyuta kursidagi tebranishlar va asosiy foiz stavkasining ko'tarilishi depozitlar bo'yicha foiz stavkasining oshishiga ta'sir ko'rsatib, bu bank daromadining pasayishiga olib kelishi mumkin;

-kreditlar bo'yicha foiz stavkasining ko'tarilishi oqibatida bank mijozlarining majburiyatlarini bajara olmasliklari ham depozitlarning qaytishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mamlakatimizda asosiy foiz stavkasining pasayib borayotganligi ijobiy hol bo'lib, bu foiz riskining tijorat banklari faoliyatiga tahdidini ma'lum darajada kamayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat ko'p jihatdan Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan oqilona pul-kredit siyosatining natijasi bo'lib, bu tijorat banklarining iqtisodiyotni sog'lomlashtirishdagi rolini oshishiga turtki bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan oqilona va samarali pul-kredit siyosati asosiy foiz stavkasining muntazam ravishda pasayib borishiga imkon yaratayotgan bo'lib, buning natijasida tijorat banklarining foiz riski tahdidiga duchor bo'lish darajasi pasayib bormoqda. Biroq, tahlillarimiz natijasida bunday ijobiy tendensiya bilan birga mamlakatimiz tijorat banklarida kredit bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkalarining oshib borishi holatini kuzatib, bunga ta'sir ko'rsatadigan salbiy omillarni ham sanab o'tdik. Bunday omillarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda bank xizmatlari bozoridagi raqobat muhitini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish kerak bo'lib, buning natijasida tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi xatti-harakatlar foiz stavkasining, mos ravishda kreditlar to'lovi bo'yicha foiz riskining pasayishiga olib kelishi mumkin:

- mijozlar uchun kurashning rivojlanish: bozorda o'zaro raqobat qiladigan tijorat banklari qanchalik ko'p faoliyat ko'rsatsa, ulardan har biri ko'proq mijozni jalb etishga harakat qiladi. Buning uchun ular mijozlarga yanada qulay imtiyozlar, shu jumladan nisbatan past foiz stavkalaridagi kreditlarni taklif qilishadi;

- ichki jarayonlarni optimallashtirish; raqobat sharoitida tijorat banklari o'z xarajatlarini pasaytirish va samaradorlikni oshirishga harakat qilishib, bu ularga o'z foydalariga zarar yetkazmasdan mijozlar uchun yanada past foiz stavkalaridagi kreditlarni taqdim etish imkonini beradi;

- individual takliflar: tijorat banklari raqobatchilaridan ortda qolmaslik uchun differensiallashgan foiz stavkalari, bonuslar va boshqa shu kabi ko'plab qulaylik va imtiyozlardan iborat bo'lgan moslashuvchan kredit dasturlarini ishlab chiqishni boshlaydi. Shakl shubhasiz, bunday dasturlar kredit oluvchilarning manfaatlariga mos keladi;

- shaffoflikning oshishi: raqobat tijorat banklarini o'z kredit takliflari bo'yicha yanada ochiq va halol bo'lishlariga undab, bu yashirin to'lov komissiyalari ehtimolligini pasaytiradi (mijozlar orasida tijorat banklari talab qiladigan to'lov summalarining real foiz stavkalaridan ham yuqori ekanligi bo'yicha e'tirozlar mavjudligi hech kimga sir emas);



- innovatsiyalarni rag'batlantirish: tijorat banklari tomonidan raqamli texnologiyalar, mijozlarning to'lov qobiliyatini onlayn-baholash va kreditlar taqdim etishni avtomatlashtirish kabilarning qo'llanilishi natijasida operatsion xarajatlar pasayadi, bu esa o'z navbatida foiz stavkani pasaytirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarida foiz riski muammosining asosiy yechimlaridan biri sifatida bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirishni ko'rsatish mumkin bo'lib, buning natijasida tijorat banklari o'z mijozlari qamrovini yanada kengaytirib, daromadlilik darajasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Interest Rate Risk (online). Federal Deposit Insurance Corporation. Available from: <https://www.fdic.gov/capital-markets/interest-rate-risk> (Last Updated: July 24, 2024).
2. Retno Belinda & Zulfa Irawati. The Effect of Interest Rate Risk on Financial Performance with the Mediating Variable of Banking Security Level (Study on Commercial Banks that Go Public in BEI) // Journal La Sociale, Vol.05, Issue 01. Jakarta: Newinera Publisher, 2024. Pages 242 – 251.
3. Adam Krueger. Considerations for Interest Rate Risk Modeling in an Elevated Rate Environment (online). Community Banking Connections. Available from: www.communitybankingconnections.org (Accessed Sept 23, 2024).
4. Процентный риск (онлайн). Финансовый анализ. Доступно: <https://1-fin.ru/?id=281&t=564> (Дата обращения: 23.09.2024).
5. Кукса О. А. и Чернак А. В. Обзор отдельных показателей кредитного риска в банковской системе Республики Беларусь // Научный потенциал молодежи – будущему Беларуси: материалы XVII международной молодежной научно – практической конференции, Пинск, 14 апреля 2023 г. Пинск: ПолесГУ, 2023. Стр. 29 – 32.
6. Маликов Т. С (2022). Молия: амалий жиҳатлар (Ўқув қўлланма). – Т.: “Nihol Print” ОК, 2022. – 428 б.
7. Adam Krueger. Considerations for Interest Rate Risk Modeling in an Elevated Rate Environment (online). Community Banking Connections. Available from: www.communitybankingconnections.org (Accessed Sept 23, 2024).
8. Процентный риск (онлайн). Финансовый анализ. Доступно: <https://1-fin.ru/?id=281&t=564> (Дата обращения: 23.09.2024).
9. Зиёдуллаев С. М. Проблемы повышения рентабельности активов коммерческих банков в Узбекистане // Журнал «Экономика и предпринимательство», №6, 2023 г. Москва, 2023. Стр. 1441 – 1445.
10. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sayti.
11. Markaziy bankning asosiy stavkasi 1 foizga pasaytirildi. Norma. https://www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/markaziy_bankning_asosiy_stavkasi_1_foizga_pasaytirildi (Chop etilgan vaqti: 09.06.2022).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
13. Годовой отчет 2023. Ташкент: ЦБ Республики Узбекистан, 2024. 185 стр.
14. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sayti.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100